

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya deb yuritiladi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Telekommunikatsiyalar sohasida boshqaruvni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2000-yil 28-iyundagi PF-2647-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 2000-yil 30-iyundagi 253-son qaroriga asosan tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatmoqda.

Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun deb yuritiladi) va boshqa qonun hujjatlari asosida faoliyat olib boradi.

Kompaniya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va boshqa vakolatli davlat boshqaruv organlarining normativ-huquqiy hujjatlari hamda o‘z Ustaviga asosan amalga oshiradi.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi barcha aksiyadorlariga nisbatan ularning ulushlari, daromadlar darajasi, jinsi, irqi, dini, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsi va mavqeidan qat’iy nazar teng munosabatni ta’minlaydi.

Kompaniya yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Kompaniya **tijorat tashkiloti bo‘lib**, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidan foyda olish.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonunining maqsadi normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, ushbu hujjatlarning o‘zaro yuridik kuchi va nisbatini belgilashdan, shuningdek ularni rejalashtirish, tashabbus qilish, tayyorlash, ekspertizadan o‘tkazish, kelishish, qabul qilish, e‘lon qilish, ularning ijrosini tashkil etishni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur Qonunning 4-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxslardir.

Qonunning 19-moddasiga asosan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tegishli davlat organlari tomonidan tayyorlanadi. Qonunning 20-moddasiga ko‘ra jismoniy va yuridik shaxslar yuqorida nazarda tutilgan tegishli davlat organlariga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash to‘g‘risida takliflar kiritishga haqli.

Kompaniya **normativ-huquqiy hujjatlarni** ishlab chiqmaydi.